

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(63 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(63 KB\)](#)

Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 230-sonli qarori haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 2 fevral kungi PF-5325-sonli Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 martdagi 230-sonli "Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida **Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 martdagi 230-sonli "Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 2 fevral kungi PF-5325-sonli Farmoniga muvofiq:

"Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajrashishlarning oldini olish, shuningdek, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga oid boshqa masalalar sohasida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha maxsus o'quv kurslari (keyingi o'rinlarda maxsus o'quv kurslari deb ataladi) tashkil etilganligi;

maxsus o'quv kurslarida qayta tayyorlash va malaka oshirish "Oila" markazi tomonidan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda ishlab chikiladigan o'quv dasturlari asosida amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

b) Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish buyicha maxsus o'quv kurslari tashkil etish tug'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

v) Quyidagilar maxsus o'quv kurslarining asosiy vazifalari etib belgilanganligi:

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajrashishlarning oldini olish hamda oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

oila institutini mustahkamlash, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish;

er-xotin, ota-ona va farzandlar, er-xotin va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, zamonaviy oilaning namunali shaklini xamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsipini keng targ'ib etish va jamiyatga singdirish;

zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilashda ishtirok etish, zamonaviy oilani rivojlantirish muammolari, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni o'rganish;

oila-nikoh munosabatlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani o'rganish;

oila institutini rivojlantirish va uning zamonaviy shaklini joriy etish;

g) Maxsus o'quv kurslari o'tkazish bo'yicha o'quv-uslubiy rahbarlik va monitoring O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi (keyingi o'rinlarda "Oila" markazi deb ataladi) tomonidan amalga oshirilishi;

maxsus o'quv kurslari "Oila" markazi xotin-qizlar qo'mitalari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo'naltiriladi, shuningdek, oila institutini mustahkamlash sohasida faoliyat yuritayotgan boshqa tashkilotlar xodimlarining malakasi oshirilishi;

maxsus o'quv kurslari tinglovchilari tarkibini shakllantirish hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish reja-jadvalini tuzish "Oila" markazining boshqarmalari tomonidan "Oila" markazi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi;

maxsus o'quv kurslarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun soatbay haq to'lash sharti bilan etakchi ta'lim tadqiqot va ilmiy muassasalarning xodimlari, shuningdek, amaliyotchi mutaxassislar jalb etilishi;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning tasdiqlangan rejasiga kiritilgan va maxsus o'quv kurslariga o'qishga yo'llangan tinglovchilarining asosiy ish joyi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi o'qish davrida saqlanib qolishi;

malaka oshirish uchun maxsus o'quv kurslariga yuborilgan boshqa shaharlik tinglovchilarga to'lanadigan sutkalik pul va ta'lim olish joyiga bir marta borib kelish bo'yicha sarflangan xarajatlar ularni yuborayotgan tomon hisobidan belgilangan tartibda qoplanishi;

maxsus o`quv kurslarini tashkil etish va o`tkazish bilan bog`liq xarajatlarni, shu jumladan o`quv mashg`ulotlariga jalb etiladigan mutaxassislar mehnatiga haq to`lanishi, kurslar tinglovchilari uchun o`quv, tarqatma materiallar va kantselyariya anjomlarini xarid qilish xarajatlarining moliyalashtirilishi Xotin-qizlarni va oilani qo`llab-quvvatlash jamoat fondi mablag`lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi;

maxsus o`quv kurslari tashkil etish uchun "Oila" markazining boshqarmalariga Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tibbiyot kasb-hunar kollejlardan ijara to`lovining "nul" qiymati bo`yicha, tegishli kommunal va foydalanish xarajatlarini qoplash shartisiz o`quv xonalari ajratilishi belgilab qo`yilganligi;

d) O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2018 yil 1 maygacha "Oila" markazi boshqarmalarining buyurtmalariga asosan tibbiyot kasb-hunar kollejlardan maxsus o`quv kurslarini tashkil etishi va o`tkazish uchun zarur xonalar ajratilishini ta`minlashi;

e) Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari "Oila" markazi boshqarmalarining buyurtmalariga asosan;

maxsus o`quv kurslarini tashkil etish uchun ajratiladigan xona va auditoriyalarda, zarur hollarda, ta`mirlash-tiklash ishlarini bajarilishi, shuningdek, Xotin-qizlarni va oilani qo`llab-quvvatlash jamoat fondi mablag`lari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ularni zarur mebel` va jihozlar, komp`yuter texnikasi va o`quv texnikasi vositalari bilan jihozlanishi;

maxsus o`quv kurslariga yuborilgan tinglovchilarga ta`lim muassasalarining talabalar uylaridan joy ajratilishining ta`minlanishi;

j) "Oila" markazi:

bir oy muddatda O`zbekiston Xotin-qizlar qo`mitasi, O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan birgalikda -qayta tayyorlash va malaka oshirish bo`yicha o`quv rejaları va dasturlarini ishlab chiqishi va tasdiqlashi, ularning muntazam yangilab borilishini ta`minlashi;

O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi bilan birgalikda -maxsus o`quv kurslarida o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish uchun oliy ta`lim muassasalarining yuqori malakali professor-o`qituvchilar tarkibi jalb etilishini ta`minlashi;

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda - o`quv jarayoni o`qitishining zamonaviy shakl va usullari, ilg`or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishini ta`minlashi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Oila" markazi Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasiga:

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o`rgatish, ajrashishlarning oldini olish hamda oiladagi ma`naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

oila institutini mustahkamlash, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, uning farovonligi va xotirjamligini oshirish;

er-xotin, ota-ona va farzandlar, er-xotin va ularning ota-onalari o`rtasidagi munosabatlar, shuningdek, zamonaviy oilaning namunali shaklini xamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsipini keng targ`ib etish va jamiyatga singdirish;

zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilashda ishtirok etish, zamonaviy oilani rivojlantirish muammolari, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an`anaviy oilaviy qadriyatlarni o`rganish;

oila-nikoh munosabatlari sohasidagi O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani o`rganish;

oila institutini rivojlantirish va uning zamonaviy shaklini joriy etish;

maxsus o`quv kurslarini o`tkazish bo`yicha o`quv-uslubiy rahbarlik va monitoringini amalga oshirishi;

maxsus o`quv kurslari "Oila" markazi xotin-qizlar qo`mitalari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo`naltirilishi, shuningdek, oila institutini mustahqamlash sohasida faoliyat yuritayotgan boshqa tashkilotlar xodimlarining malakasi oshirilishi;

maxsus o`quv kurslari tinglovchilari tarkibini shakllantirish hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish reja-jadvalini tuzish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" markazi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi;

maxsus o`quv kurslarida o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish uchun soatbay haq to`lash sharti bilan etakchi ta`lim tadqiqot va ilmiy muassasalarining xodimlari, shuningdek, amaliyotchi mutaxassislar jalb etilishi;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning tasdiqlangan rejasiga kiritilgan va maxsus o`quv kurslariga o`qishga yo`llangan tinglovchilarining asosiy ish joyi bo`yicha o`rtacha oylik ish haqi o`qish davrida saqlanib qolishi;

malaka oshirish uchun maxsus o`quv kurslariga yuborilgan boshqa shaharlik tinglovchilarga to`lanadigan sutkalik pul va ta`lim olish joyiga bir marta borib kelish bo`yicha sarflangan xarajatlarni ularni yuborayotgan tomon hisobidan belgilangan tartibda qoplanishi maxsus o`quv kurslarining asosiy vazifalari etib belgilansin.

4. Qoraqalpog`iston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi Qoraqalpog`iston Respublikasi Xotin-qizlar qo`mitasi bilan birgalikda 2018 yil 1 maygacha "Oila" markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasining buyurtmasiga asosan tibbiyot kasb-hunar kollejlardan ijara to`lovining "nul" qiymati bo`yicha, tegishli kommunal va foydalanish xarajatlarini qoplash shartisiz maxsus o`quv kurslarini tashkil etish va o`tkazish uchun zarur xonalar ajratilishini ta`minlasin.

5. Qoraqalpog`iston Respublikasi Xotin-qizlar qo`mitasi, Moliya vazirligi va "Oila" markazi Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasi bilan birgalikda maxsus o`quv kurslarini tashkil etish uchun ajratiladigan xona va auditoriyalarda, zarur hollarda ta`mirlash-tiklash ishlarining bajarilishi, xonalarni zarur mebel` va jihozlar, komp`yuter texnikasi va o`quv texnikasi vositalari bilan jihozlash uchun zarur mablag` ajratilishini

ta`minlasin.

6. “Oila” markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi Boshqarmasi:

Oliy o`quv yurtlari va O`rta maxsus kasb ta`limi boshqarmasi bilan birgalikda - maxsus o`quv kurslarida o`quv mashg`ulotlarini o`tkazish uchun oliy ta`lim muassasalarining yuqori malakali professor-o`qituvchilar tarkibi jalb etilishini ta`minlasin.

7. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog`iston Respublikasi hududiy boshqarmasi:

O`quv jarayoni o`qitishning zamonaviy shakl va usullari, ilg`or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishini ta`minlasin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari, Xotin-qizlar qo`mitasi raisi Z.A.Ibragimova, Qoraqalpog`iston Respublikasi Sog`liqni saqlash vaziri D.Sh.Xodjiev va “Oila” markazining Qoraqalpog`iston Respublikasi boshqarmasi boshlig`i zimmlariga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)